



*Bu qissalar ne bir kunlarni ko'rmadi!  
Zoti nomard bo'ldi, ushbu qissalar yoqasidan oldi. Og'zi buzuv bo'ldi, ushbu qissalarga  
tupugini sochdi. Qo'li nopok bo'ldi, ushbu qissalardan butun-butun boblarni o'chirib  
tashladi.*

*Oqibat, ushbu qissalar o'z vaqtida pati yulinmish tovuq misol chop etildi.  
Alqissa, dorilomon kunlar keldi. «Ot kishnagan oqshom»dagi Ziyodulla  
chavandozchasiga aytar bo'lsak... ulov Tog'ay Murodda ketdi!*

## 1

Birodarlar, ko'rgilik, ko'rgilik!

Bir erta uyg'onib, kallamga qo'l yugurtirdim. Sochlarim orasida yara-chaqalar uch berdi.

Parvoyim falak bo'ldi, yura berdim. Onamga-da aytmadim.

Chaqalar kun sayin bolaladi. Katta-katta bo'ldi. Qo'tir bo'lib qichidi.

Shunda, qishlog'imiz do'xtiriga bordim. Do'xtir fu, deya aftini burishtirdi. Yurchidagi

kalxonaga olib jo'nadi.

Yo'lda mashinadan tashlab qochdim. Ushlab kelib, yana mashinaga bosdi.

Kalxonada... Uh, aytgili yo'q. Do'xtir degani berahm ekan. Onamni ko'rdim, birodarlar,  
onamni...

Bari kalga qaytadan jingala soch bitdi. Mening kallam yaltirab qoldi. Bitta-da soch

bitmadi! Do'xtirlar ajablendi, kamdan kam uchraydigan voqea, dedi. Xo'rligimdan  
yig'lab-yig'lab uyga keldim.

Onamiz tap-taqir kallamni ushlab-ushlab ko'rdi. Ich-ichidan kuydi. Aytib-aytib yig'ladi.

— Kambag'alni tuyaning ustida it qopadi, degani shu-da, — dedi.

Katta telpak sotib oldim. Qishin-yozin quloqlarimgacha bostirib kiyib yurdim. Maktabda-  
da telpagimni olmadim.

Matematika muallimimiz oyog'ini tirab talab etdi:

— Bosh kiyimingni olmasang, dars o'tmayman!— dedi.

Old qatorda o'tirgan sinf oqsoqolimiz muallimga bir nimalar dedi. Ammo muallim o'z